



6. Yoshiro Matsui. "Japanese Environmental Law and Policy". Edward Elgar Publishing. 2019. <https://www.e-elgar.com/shop/gbp/japanese-environmental-law-and-policy-9781788114318.html>

7. Nature Conservation Law and protected areas in Japan. 22.06.1972. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3128/en>



RAQAMLI TA'LIM VA SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Sevinch Mo'minova O'ktam qizi

Iqtisodiyot va pedagogika fakultetining iqtisodiyot yo'nalishi 3 kurs talabasi E-mail:

sevinchmominova007@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli ta'lim va sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni, afzalliklari hamda ularni qo'llash istiqbollari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim, maqsad, e'tibor, sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, innovatsiya.*

KIRISH

Bugungi kunda butun dunyo raqamli texnologiyalarni qo'llab-quvvatlamoda va bu ta'limda keskin o'zgarishlar olib bormoqda. Raqamli ta'lim hamda sun'iy intellekt o'qituvchilar hamda o'quvchilarga juda katta yordam bermoqda, sifatli ta'lim berishda hamda hozirgi kundagi yoshlarga oson material yetkazishda, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Asosiy qism

Raqamli ta'limda xoh talaba bo'lsin, xoh o'qituvchi bo'lsin, o'zi turgan joyda, xoh o'qishda yoki ko'chada bo'lsin, o'zini qiziqtirgan savollarga javob topmoqda. Bu esa o'qituvchilar hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshirmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari esa ta'limni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt yordamida talabalarning bilim darajasi hech qanday qog'ozlarsiz va ortiqcha to'lovlarsiz tekshirilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt ingliz tili va IELTS imtihonlariga tayyorlanishda samarali foydalanilib, nimaga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini aniqlashga yordam bermoqda.

Hamda universitetlarda baholash tizimlarini oson va shaffof o'tkazishga xizmat qilmoqda. Bu holat esa poraxo'rlikka chek qo'yilishiga va uning kamayishiga sabab bo'layotganini aks ettiradi. Bu quvonarli holat hisoblanadi.

Shuningdek, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga chat-botlar orqali tezda javob olmoqda va vaqtlarini tejamoqda. Bu esa o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda.

Biroq raqamli ta'limning kirib kelgani yaxshi, lekin ayrim insonlar u bilan haddan tashqari bog'lanib qolganligi sababli inson o'z his-tuyg'ularini yo'qotishi mumkin. Masalan, oldin o'zimiz o'ylab javob bergan oddiy savollarga ham hozirgi kunda javob berishga erinib, chat-botlarga murojaat qilayotganimiz dilni hira qiladi. Shuningdek, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Raqamli ta'lim va sun'iy intellekt hayotimizga osonlik va yengillik olib kelayotgan manbalardan hisoblanadi. Eng muhimi, undan to'g'ri foydalanishdir. Agar hamma bilim olish maqsadida foydalansa, har bir davlat va inson rivojlanib boradi. Chunki bu ta'lim olishga va pul tejashga ham katta yordam beradi.



Shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, sun'iy intellektni hayotingizga emas, bilim olishga qaratsangizgina siz bu hayot jangida yutasiz.

SUN'IY INTELLEKT BIZNI EMAS, BIZ SUN'IY INTELLEKTNI YARATGANIMIZNI YODINGIZDAN CHIQARMANG.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

<https://raqamlitalim.trm.uz/konf-top/>

<https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/85084>

<https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/6614>